

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10801728>

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILINI O‘RGATISHNING MAZMUNI VA VAZIFALARI

**Baxtiyorova Asila**

Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti 2-bosqich talabasi

[baxtiyorovaasila18@gmail.com](mailto:baxtiyorovaasila18@gmail.com)

**M.A.Hamrayev**

Ilmiy rahbar. Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang‘ich ta‘limda ona tili va uni o‘qitish metodikasi professori v.b filologiya fanlari nomzodi.

[m.a.hamrayev@gmail.com](mailto:m.a.hamrayev@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ona tili fanining o‘rgatishning mazmun va vazifalari yoritib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Ona tili kursida beriladigan bilimlar, tilni o‘rganish jarayoni, fonetika va grafika, so‘z turkumlari.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье описаны содержание и задачи обучения родному языку учащихся начальных классов.*

***Ключевые слова:** знания, даваемые в курсе родного языка, процесс изучения языка, фонетика и графика, группы слов.*

### ANNOTATION

*This article describes the content and tasks of teaching native language to primary school students.*

**Key words:** *knowledge provided in the mother tongue course, language learning process, phonetics and graphics, word groups.*

Maktablarda ona tili o'rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo'ygan vazifasiga moslashgan. Bu vazifalar ko'p qirrali bo'lib, ularni bajarish o'quvchilar ongini o'stirishga, ularga g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo'naltirilgan. Ona tilini o'rgatish natijasida o'quvchilarda o'z fikrini grammatik to'g'ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olishi va uni imloviy to'g'ri yoza olish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu vazifa o'quv predmeti sifatida o'zbek tilining o'ziga xos xususiyati bo'lib, o'quvchini shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan umumta'lim vazifalari bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

Bundan kelib chiqadiki ona tilimizni to'g'ri o'rganish jamiyat rivojlanishining asosiy bosqichlaridan biri bo'lib qaralmoqda. Tilimiz qanchalik boy bo'lsa yuksalishimiz ham shunchalik baland bo'ladi. Hozirgi kunda ko'p yoshlarimiz bir qancha chet tillarini o'rganib yuqori cho'qqilarga erishib kelmoqda.

Ona tili kursida beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi (fonetika va grafika); so'zlarning o'zgarishi va gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi (grammatik, ya'ni morfologik va sintaktik); so'zning morfemik tarkibi va so'z yasash usullari haqidagi (so'z yasalishiga doir); so'zlarning leksik-semantik guruhi haqidagi (leksikologiya); o'zbek tilining to'g'ri yozuv tamoyillari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi (orfografik va punktuatsion) bilimlar tashkil etadi. Bu bilimlar, birinchidan, grammatik, fonetik, so'z yasalishiga oid tushunchalarda, ikkinchidan, grafik, orfografik, punktuatsion qoidalarda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, o'zbek tili kursi fonetik, grafik, morfologik, sintaktik va boshqa ko'nikma va malakalarni ham o'z ichiga oladi.

Tilni o'rganish jarayonida o'quvchilarda boshqa ko'pgina o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan ko'nikmalar (predmetlararo ko'nikmalar)ni hosil qilish ustida ham ish olib boriladi. Pedagogikada bunday predmetlararo ko'nikmalarga analiz, sintez, abstraktlashtirish (til hodisalarini fikran tasavvur etish), umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash kabilar kiradi. Ushbu ko'nikmalarni o'quvchilarda shakillantirish ustida maqsadga muvofiq ishlash ularning o'quv faoliyatini faollashtirishga, bilimlarni muvaffaqiyatli egallashlariga imkoniyat yaratadi. Ona tili kursidan hosil qilinadigan maxsus ko'nikmalar bilan predmetlararo ko'nikmalar, bir-biridan ajratilmagan holda o'quv-tarbiyaviy jarayonda shakillantiriladi.

Beriladigan bilim va o'quvchilarda hosil qilinadigan maxsus ko'nikmalar maktab dasturlari va davlat ta'lim standartida qayd etilgan. "Yoshlikda olingan bilim-toshga o'yilgan bitikdir", deb bejizga aytmagan dono xalqimiz. Chunki har qanday bilimni egallamoqchi bo'lsak yoshlikda harakat qilishimiz kerak. Ayni xotiramiz joyida, hech narsaga chalg'imasdan izlanib o'qishimiz kerak. Shu bilan birga boshlang'ich sinf o'quvchilari ham olgan bilimlarini bir umr xotirasiga saqlaydi. Nafaqat bilim balki o'qituvchisida ko'rgan jamiki yaxshi xislatlarni o'zida aks ettirishga harakat qiladi.

Boshlang'ich sinflarda o'rganish uchun tilni ongli egallashga va o'quvchilarda grafik va imloviy malakalarni shakillantirishga zamin bo'ladigan bilimlar tanlangan. Fonetika va grafika sohasida o'quvchilar so'zning tovush tarkibini, unli va undosh tovushlarning o'ziga xos xususiyatlarini, so'zda tovushning ma'noni farqlashdagi ahamiyatini to'g'ri tushunishga imkon beradigan bilimlarni o'zlashtiradilar, shuningdek, ularga so'zning tovush va grafik shakli o'rtasidagi nisbatni ongli aniqlash, so'zni to'g'ri yozish imkoniyati yaratiladi. Morfologiya sohasida ham so'zni ongli o'zlashtirish, uni to'g'ri ishlatish uchun katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgan bilimlar shakllangan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari 1-sinfdan boshlab soz turkumlari(ot, sifat, son, olmosh, fe'l)ni har xil saviyada o'rganadilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida, ayniqsa 1-sinf o'quvchilarida to'g'ri talaffuz qilishda, to'g'ri yozishda va tovush xususiyatlarini anglashda bir qancha xatolarga yo'l qo'yiladi. Bu xatolarni

to'g'irlashda bolaga biz pedagoglar yordam berishimiz, so'zning mohiyatini anglatishimiz shart va lozim.

Sintaksisdan dasturga nutq birligi sifatida gap haqidagi, gapda so'zlarning bog'lanishi, bosh va ikkinchi darajali bo'laklar haqidagi bilimlar kiritilgan. So'zning morfemik tarkibi yuzasidan har bir morfemaning muhim belgilarini, ularning ahamiyati va so'zda bir-biriga ta'sirini boshlang'ich sinf o'quvchilari tushunadigan va so'zlarni to'g'ri yozishda foydalanishlari uchun zarur bo'lgan hajmda ma'lumot berilgan.

Dasturda "Leksik" bo'lim alohida berilmagan, ammo o'quvchilar so'zlarning leksik-semantik guruhlari (sinonimlar, antonimlar) haqida, ularning leksik ma'nolari haqida so'z turkumlari va so'z tarkibini o'rganish jarayonida ma'lumot oladilar.

Boshlang'ich sinflar ona tili kursi 1-4-sinflarda tilning hamma tomonlarini o'zaro bog'liq holda o'rganilishi hisobiga olinib tuzilgan, har bir sinfda fonetika, leksika, grammatika va so'z haqida elementlar bilimlar beriladi. Kursning bunday qurilishi tilning barcha tomonlarini bir-biriga o'zaro ta'sir etadigan bir butun hodisa sifatida o'rganishni taqozo etadi. Tilni o'rganishda bunday yondashish ta'lim harayonini o'quvchilar nutqini o'stirish vazifasini hal etishga yo'naltirish imkonini beradi. Darhaqiqat, shuni ham unutmaslik kerakki, o'quvchilar nutqini o'stirish boshlang'ich sinf o'qituvchilarining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Dasturning "Grammatika, imlo va nutq o'stirish" bo'limi har bir sinfda quyidagicha qismlarni o'z ichiga oladi: "Tovushlar va harflar", "So'z", "Gap", "Boglanishli nutq". Asosiy mavzular bosqichli izchillik tamoyiliga asoslanib, har to'rt sinfda o'rganiladi. Har bir sinfda yetakchi mavzular ajtariladi. 1-2-sinfda fonetika va grafikaga oid mavzularni o'rganishga katta o'rin beriladi, chunki o'quvchilar o'qish va yozish jarayonini egallaydilar. 3-sinfda so'zning morfemik tarkibi va gapni o'rganish muhim hisoblanadi. So'z yasalishiga doir bilimlar asosida o'quvchilarda so'zning leksik ma'nosiga, undan nutqda foydalanishga ongli munosabat shakllanadi. 4-sinfda so'z turkumlarini o'rganish birinchi o'ringa qo'yiladi. Bunda asosan morfologik

bilimlar chuqurlashtiriladi, otlarning egalik va kelishik qo‘shimchalarini, fe’llarning tuslovchi qo‘shimchalarini to‘g‘ri yozish malakalari shakillantiriladi.

Ona tili darslarida til hodisalari ma’nosi, qurilishi, vazifasi jihatidan o‘rganiladi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kundan boshlab jamiyatni isloh qilish siyosatini kun tartibiga qo‘yildi. Barcha sohalardagi kabi ta’lim sohasini isloh qilish siyosati ham izchillik bilan amalga oshirila boshladi. Bundan ko‘rinib turadiki, biz yoshlarga juda ham keng imkoniyatlar ochildi, barcha yoshlarni ta’limga jalb etish boshlandi. Konsititutsiyamizda ham “Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir”, - deyilgan.

Bundan tashqari boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha yangi tahrirdagi Davlat ta’lim standarti ham mustaqillik davridagi tajribalar natijasi sifatida maydonga keldi. U boshlang‘ich ta’lim darsliklari va metodik qo‘llanmalarining yangi avlodini yaratishda dasturulamal vazifasini o‘tamoqda.

Ma’lumki, DTSda belgilab berilgan ona tili ta’limi mazmuni aniq mavzular va til materiallari asosida dastur va darslikda o‘z ifodasini topadi. Ular biri ikkinchisining ijrochisi bo‘lib bir-biriga mufofiq kelishi lozim.

Xulosa qilib aytish mumkinki, boshlang‘ich sinf ona tili mazmuni metodist olimlarning ko‘p yillik kuzatishlari, tajribalari natijalarining tahlili asosida takomillashtirilib kelinmoqda. Ayniqsa, ona tili o‘qitishning amaliy ahamiyatiga e’tibor qaratilmoqda. Bundan maqsad o‘tib kelayotgan har bir yosh avlodni o‘z fikrini bayon etishga hamda o‘quvchilarni shaxs sifatida shakillantirishga yo‘naltirilgandir . Yana shuni aytishimiz mumkinki har bir millatning o‘z dini, e’tiqodi va madaniyati bilan birgalikda o‘z ona tilisi ham bo‘ladi. Bu til tug‘ilgandayoq unga singdiriladi. Inson turli xil tillarni o‘rganishi mumkin. Lekin hammasidan ustun bo‘lib uning ona tilisi turadi. Hozirgi kunda yurtimizda til o‘rganishga va o‘rgatishga juda ham katta e’tibor qaratilmoqda. Yoshlarimizning aksariyat qismi ikki yoki uch tilda ravon so‘zlasha oladilar. Bizga berilgan bu imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalana olaylik.

Keraksiz narsalarga vaqtimizni yo'qotmaylik. Shuning o'rniga til o'rganaylik. Zero til bilgan-el biladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Ona tili o'qitish metodikasi. (Boshlang'ich ta'lim talabalari uchun darslik):* K.Qosimova, S.Matchonov, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, Sh.Sariyev. - T.: <<NOSHIR>>, -2009.
2. S.Matchonov „Boshlang'ich sinf o'qish darslarini pedagogik texnologiyalarasosida tashkil etish“.
3. Q.Abdullayeva "Birinchi sinfda nutq o'stirish"
4. Q.Abdullayeva, S.Rahmonbekova. "Ona tili darslari".